MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM JARAYONINI MAVZULI REJALASHTIRISH

## TAYYORLOV GURUH

# NAMUNA

**O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining uchinchi nashr asosida tayyorlangan**

# DAVLAT O‘QUV DASTURINI TAKOMILLASHTIRISH UCHUN ASOS

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmoni → O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi 157-sonli qarori → Maktabgacha ta’limdagi xalqaro tajriba *(Singapur va Buyuk Britaniya tajribasi)* → MTT pedagoglarining YUNISEF xalqaro tashkiloti bilan hamkorligida o‘tkazgan tadqiqot natijalari

# DAVLAT O‘QUV DASTURINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA XALQARO TAJRIBA

| | | |
|---|---|---|
| **MSKO** | YUNESKOning “Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi” (ISCED-2011). 106 band. http://uis.unesco.org/sites/default/files/documents/isced-2011-ru.pdf | |
|  | NURTURING EARLY LEARNERS | **Singapurning maktabgacha ta’lim uchun o‘quv dasturi** |
|  | **Cambridge Early Years** | Kembridjning maktabgacha ta’lim uchun o‘quv dasturi |

## SENTABR. BIRINCHI HAFTASI

## OY MAVZUSI: «Vatan, oila va totuvlik–baxtli bolalik poydevori»

| | | |
|---|---|---|
| **Guruh** | Tayyorlov guruh | |
| **Mavzu** | **“**Mening Vatanim –O‘zbekiston**”** | |
| **Muddati** | ***Sentabr oyining 1-haftasi*** | |
| **Rivojlanish sohalari bo‘yicha maqsadlar** | **Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi** | Bolalarga doimiy jismoniy mashqlar bajarish, ozoda yurish, to‘g‘ri ovqatlanish sog‘liq uchun foydali ekanligini tushuntirish. Inson hayoti uchun nima zararli ekanligini o‘rgatish. |
| | **Ijtimoiy-xissiy rivojlanish** | Erkinlikka intilish orqali shaxsiy hissiyotlarini shakllantirish. Qiyin vaziyatlardan chiqishni o‘rgatish. Ko‘chada yurish, yo‘l harakati qoidalariga rioya qilishni o‘rgatish. |
| | **Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari** | Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, so‘zlashish odobiga rioya qilishni o‘rgatish. |
| | **Bilish jarayonining rivojlanishi** | Davlat ramzlari xaqidagi bilimlarni mustahkamlash, ona tilida o‘zining ko‘chasi va mahallasi nomini ayta olishga o‘rganishiga yordam berish. Qurilmalarni mustaqil o‘lchashga o‘rgatish. |
| | **Ijodiy rivojlanish** | Hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish, ritmni his etish, turli buyumlardan kompozitsiyalar yaratishga o‘rgatish. |

| **Rivojlanish markazlari** | | **Ta’lim-tarbiyaviy faoliyat** | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **Dushanba** | **Seshanba** | **Chorshanba** | **Payshanba** | **Juma** | **Resurslar, ilovalar** |
| **Erkin faoliyat** | **Qurish va konstruksiyalash, matematika** | *«Mening shahrim»* | | *«Minora quramiz»* | | | Qurilish bloklari, lego, konstruktor, kubiklar. |
| | **Syujetli-rolli o‘yinlar va drammalashtirish** | *«Yosh sayohatchilar»* | | *«Maktab»* | | | Niqoblar, belgilar, atributlar. |
| | **Nutq va til** | *Hikoya tuzish: Qishki kiyimlar* | | *«Vatanimizning qadimiy shaharlari» (Samarkand, Buxoro, Xiva)* | | | Syujetli rasmlar, AKT, predmetam rasmlar. |
| | **Fan va tabiat** | *«O‘lkamizning relefo‘» (Tog‘lar, adirlar, daryolar)* | | | *Sabzavot va mevalardan bo‘yoq olish* | | Akvariumdagi baliq; rasmlari. |
| | **San’at markazi** | *«O‘zbekistonning milliy bayramlari»* | | | *«Tabiiy bo‘yoqlardan kuzgi manzara yaratganmiz»* | | Qog‘oz, rangli qog‘oz, tabiiy materiallar. |
| | **Umumiy guruh bo‘lib ishlash** | | | | | | |

**Sentabr 1-hafta mavzusi:** *“*Mening Vatanim – O‘zbekiston*”*
**Qurish, konstruktsiyalash va matematika markazi**
***«Mening shahrim»***
**Maqsad:** bolalar kublar va turli konstruktorlardan shahar kurishni, turli hajmdagi shakllarni nomlash va ulardan qurilishda foydalanishni o‘rganadilar. Son-sanoqni bilish, ranglar va shakllarni farqlash malakalari mustahkamlanadi.
**Kerakli jihoz va materiallar:** kublar, geometrik shakl, manzarali o‘simliklar to‘plami, shahar tasviri tushirilgan suratlar.
**Faoliyatning borishi:**
1. «Mening shahrim» mavzusi bo‘yicha suratlarni ko‘rib chiqish.
2. Bolalar bilan shahar qurilishini rejalashtirish.
3. Shaharni konstruktsiyalash.
4. Bolalar ishlarini muhokama kilish va rag‘batlantirish.
**Qo‘shimcha:** tarbiyachi bolalarga o‘z kompozitsiyalarini mayda o‘yinchoqlar (avtomobillar, bayroqchalar, daraxt va shu kabilar) bilan bezash mumkinligini tushuntirib beradi, rasmga
aloqador so‘zlar bilan tanishtiradi.
**E’tiborga mol i k jihati:** bolalarning jamoa bo‘lib ishlashi va hayot xavfsizligi qodilaraiga ahamiyat Beriladi.
**Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazi**
***“Yosh sayyohlar»***
**Maqsad:** bolalarning ona yurt haqidagi tushunchalari kengayadi. Jamoada o‘zaro fikr almashish ko‘nikmalari rivojlanadi.
**Kerakli jihoz va materiallar:** rasmlar, AKT, ryukzaklar, kepkalar, fotoapparat, o‘yin uchunpullar, xarita, durbin, kompas, ona yurtimizning diqqatga sazovor maskanlari tasvirlangan suratlar.
**Faoliyatning borishi:**
1. Shahar yoki ko‘cha bo‘yicha ekskursiya yo‘nalishini rejalashtirish.
2. Kerakli jihoz, buyumlar to‘plamlarini ko‘rib chiqish.
3. AKT orqali shahar yoki ko‘cha bo‘ylab ekskursiya.
4. Yosh sayohlar ekskursiyasini muhokama qilish va rag‘batlantirish.
**Qo‘shimcha:** tarbiyachi bolalarga o‘z ekskursiya
yo‘nalishlarini tuzib chiqishni taklif qiladi.
**E’tiborga molik jihati:** har bir bolaning faoliyatiga e’tibor qaratish va hayot xavfsizligi qoidalariga ahamiyat Beriladi.

**Fan va tabiat markazi**
***O‘lka rel’efi (shahar, vodiy, daryolar)***
**Maqsad:** bolalar relef (shahar, vodiy, daryolar relefi) tushunchasi bilan tanishadilar.
O‘lkamiz relefi maketini yaratish, shahar, vodiy, daryolarning ahamiyatini markazdagi jihozlar orqali o‘rganadilar.
**Kerakli jihoz va materiallar:** qum, suv, loy, turli tosh, shakl, chelak, belkurakcha, haskash, yelim panjaralar.
**Faoliyatning borishi:**
1. «Mening o‘lkam» mavzusida videofilm yoki suratlarni ko‘rib chiqish.
2. Bolalar bilan o‘lkamiz relefi maketini rejalashtirish.
3. O‘lkamiz mini-relefini yaratish.
4. Bolalar ishlarini tahlil qilish va rag‘batlantirish.
**Qo‘shimcha:** tarbiyachi bolalarga o‘z kompozitsiyalarini mayda o‘yinchoqlar (archalar, daraxtlar, uychalar, qayiqchalar va shu kabilar) bilan bezash mumkinligini tushuntirib o‘tadi.
**E’tiborga molik jihati:** tasavvur va nutq faoliyatining rivojlanishi hayot xavfsizligi asoslari.
**San’at markazi**
***«O‘zbekistonning milliy bayramlari»***
***(tasviriy faoliyat)***
**Maqsad:** bolalarning O‘zbekiston milliy bayramlarini bilish, bayramlarning o‘xshashlik va farqlarini anglash, milliy urf-odatlar haqidagi tasavvurlari kengayadi.
**Kerakli jihoz va materiallar:** bayramlar suratlari to‘plami, AKT, qog‘oz, bo‘yoqlar, bo‘yoqlar uchun maxsus idishlar.
**Faoliyatning borishi:**
1. «Milliy bayramlar» mavzusida suratlar bilan tanishish.
2. Bayramlar haqida suhbat.
3. Bolalar tomonidan ixtiyoriy bayram mavzusini tanlash.
4. Rasm chizish jarayoni.
5. Rasmlar ko‘rgazmasini tashkil etish.
**Qo‘shimcha:** tarbiyachi bolalardan bayramlar mavzusida she’r va qo‘shiqlar aytib berishini so‘rash, ota-onalar uchun rasmlar ko‘rgazmasini tashkil qilish.
**E’tiborga molik jihati:** ish jarayonida tartibli bo‘lish va ozodalikka rioya qilish. Ota-onalar uchun ko‘rgazma tayyorlash jarayonlariga ahamiyat Beriladi.
**Qurish, konstruktsiyalash va matematika markazi**
***«Minora quramiz»***
**Maqsad:** bolalarda turli qurilish ashyolaridan minora qurish malakasi mustahkamlanadi.
Shakllarni nomlash va ulardan qurilishda foydalanish jarayonida son-sanoqni, kattalik, rang va shakllarni farqlashni o‘rganishlari lozim.
**Kerakli jihoz va materiallar:** kubiklar,

geometrik shakllar, qurilish bloklari, minoralarning suratlari.
**Faoliyatning borishi:**
1. «Minora» mavzusidagi suratlarni ko‘rib chiqish.
2. Minora qurish rejasini tuzish.
3. Minorani konstruktsiyalash.
4. Ishlatilgan qurilish materiallarini hisoblash.
5. Bolalar ishlarini muhokama qilish va rag‘batlantirish.
**Qo‘shimcha:** tarbiyachi minora qurilishi jarayoniga aloqador so‘zlar qaqida tushuncha beradi.
**E’tiborga molik jihati:** jamoada birgalikda ishlash va o‘zaro munosabatning shakllanishiga ahamiyat Beriladi.

**Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazi**
***«Maktab»***
**Maqsad:** bolalarda maktabda o‘qishga qiziqish uyg‘onadi. O‘quv qurollaridan foydalanish tartibini o‘rganadilar. O‘qituvchilik kasbi haqidagi tushunchaga ega bo‘ladilar.
**Kerakli jihoz va materiallar:** parta rasmi, kublar, portfellar, maktab formasi, doska, o‘quv qurollari.
**Faoliyatning borishi:**
1. «Maktab», «Maktab hayoti» mavzusida rasmlar to‘plamini ko‘rib chiqish.
2. Bolalar orasida rollarni taqsimlash.
3. Ijro etish jarayonini tashkillashtirish.
**Qo‘shimcha:** tarbiyachi bolalarga tanaffus e’lonqiladi, bo‘lajak o‘quvchilarni bufetga taklif qiladi, buterbrod tayyorlashni taklif qilishi mumkin.
**E’tiborga molik jihati:** rollar taqsimotini
***Tayyorlov guruh***
bolalar kelishuvi va xohish-istaklari asosida amalga oshirilishi va hayot xavfsizligi asoslariga ahamiyat Beriladi.

**Til, nutq va savodxonlikka o‘rgatish markazi**
***Vatanimizning qadimiy shaharlari (Samarkand, Buxoro, Xiva)***
**Maqsad:** bolalar davlat ramzlarini, ko‘cha va mahallalarining nomini, Vatanimiz qadimiy shaharlari haqidagi, ularning joylashuvi va iqlimi haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.
**Kerakli jihoz va materiallar:** O‘zbekistondagi shaharlarning suratlari, O‘zbekiston xaritasi, AKT, slaydlar, haykalchalar, maketlar.
**Faoliyatning borishi:**
1. «Vatanimizning qadimiy shaharlari» mavzusi bo‘yicha suratlarni ko‘rib chiqish.
2. Suratlar bo‘yicha hikoyalar tuzish.
3. O‘lkamizning diqqatga sazovor joylari suratlarini ko‘rib chiqish.
4. Mustaqil yoki tarbiyachi yordamida shaharlar nomini o‘qish, diqqatga sazovor joylarni ko‘rish.
**Qo‘shimcha:** shaharlarning qadimiy binolari maketlarini ko‘rib chiqish va xarita bilan ishlashni taklif qilish.
**E’tiborga molik jihati:** bolalarning yangi so‘zlarni o‘zlashtirishiga va xarita haqidagi tushunchalariga ahamiyat Beriladai.

**Fan va tabiat markazi**
***Sabzavot va mevalardan bo‘yoq olish (lavlagi, sabzi, bodring, ko‘katlar, piyoz, yong‘oq barglari va maysalar)***
**Maqsad:** bolalarning o‘lkamizning ne’matlari, sabzavot va mevalarning xususiyatlari haqidagi bilimlari oshadi. Loy, suv va qumni bo‘yash bo‘yicha amaliy mashgulotlarni o‘tkazishni, ulardan tabiiy bo‘yoqlarni olish malakasi hosil bo‘ladi.
**Kerakli jihoz va materiallar:** fartuk, sabzavotlar, mevalar, taxtakach, pichoq, qo‘lda sharbat siquvchi moslama, idish, qum, loy, suv.
**Faoliyatning borishi:**
1. Sharbat Beruvchi meva va sabzavotlarni aniqlash.
2. «Tabiat ranglari» mavzusi bo‘yicha rasmlar bilan tanishish (nimadan qaysi rang olish mumkin?).
3. Tanlangan meva va sabzavotlardan sharbat olish bo‘yicha amaliy tajriba o‘tkazish.
4. Qum, suv va loyga rang berish.
5. Bolalar ishlarini muhokama qilish va rag‘batlantirish.
**Qo‘shimcha:** tarbiyachi ranglar aralushuvidan qo‘shimcha ranglar hosil qilishni o‘rgatadi.
**E’tiborga molik jihati:** ish ketma-ketligi va gigiena talablariga amal qilishiga va hayot xavfsizligi asoslariga ahamiyat Beriladi.

**San’at markazi**
***Tabiiy bo‘yoqlardan «Kuz» manzarasini chizish***
**Maqsad:** bolalar kuzning o‘ziga xos xususiyatlari va kuzgi tabiat o‘zgarishlari bilan tanishadi, «xazonrezgi» va «jala» kabi so‘zlar bilan lug‘at bOYlarini oshiradi. Yil fasllarining xususiyatlari bo‘yicha bilimlari kengayadi.
**Kerakli jihoz va materiallar:** qog‘oz, natyurmort, bo‘yoqlar, maxsus stakancha, tabiiy xom-ashyolar.
**Faoliyatning borishi:**
1. Kuz fasli haqida suhbat.
2. Bolalarning tabiiy ranglar bo‘yicha tasavvurlarini kengaytirish.
3. Namunaga qarab chizish.
4. Ko‘rgazma tashkil etish va rag‘batlantirish.
**Qo‘shimcha:** mavzuni mustahkamlash uchun tarbiyachi jamoada ishlashni tashkil etishi va kuzni boshqa fasllar bilan taqqoslashi mumkin.
**E’tiborga molik jihati:** bolalarning qiziqishi va tajribalariga va hayot xavfsizligi asoslariga ahamiyat Beriladi.

*veb-saytimiz: Zokirjon.com*

*Zokirjon.com veb-saytimiz orqali o‘zingizga kerak bo‘lgan hujjatlarni yuklab oling.*

*Zokirjon Admin bilan*

***+99891-328-88-38 nomerga yoki jek567 izlab telegramga yozishingiz so‘raladi.***

***Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi***

***Tayyorlov guruhlarga 129 listdan iborat ta’limiy mavzuviy rejalashtirishni to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.***

Telegram kanalimiz:

**@maktabgacha_tt**

**To‘lov uchun: HUMO 9860230104973329**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**




**DIQQAT!!!**

**Sizga bu OMONAT qilib beriladi.**
**To‘liq holda olganingizdan so‘ng:**
**Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.**
**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.**
**Internet orqali veb-saytlarga joylamang.**
**Kanal va gruppalarga tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT QILMANG.**